

MIR ALISHER NAVOIYNING TARIXIY JAMIYATDAGI O'RNINI O'RGANISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI

Soipova Orzugul Inomjon qizi

Qo'qon Davlat universiteti Gumanitar fanlar va tillar fakulteti Tarix yo'nalishi

202 – guruh talabasi

Tel: +99893 384 81 15

E – mail: orzugulsoipova72@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18503829>

"Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa,

millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev

Annotatsiya

Mazkur maqolada buyuk mutafakkir va davlat arbobi Mir Alisher Navoiy merosining tarixiy jamiyat taraqqiyotidagi o'rni pedagogik texnologiyalar asosida o'rganish masalalari tahlil etiladi. Tadqiqotda Navoiy faoliyatini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari yoritib berilgan. Shuningdek, tarixiy tafakkurni rivojlantirish, o'quvchilarda milliy qadriyatlar va ma'naviy merosga hurmat tuyg'usini shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning samaradorligi asoslab beriladi. Maqola ta'lim jarayonida Navoiy merosini o'rganishga oid metodik tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Mir Alisher Navoiy, tarixiy jamiyat, pedagogik texnologiyalar, interfaol ta'lim, zamonaviy ta'lim metodlari, ma'naviy meros, tarixiy tafakkur, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim samaradorligi.

Аннотация

В данной статье анализируются вопросы изучения роли наследия великого мыслителя и государственного деятеля Мир Алишера Навои в развитии исторического общества на основе педагогических технологий. В исследовании освещаются возможности использования современных педагогических подходов, интерактивных методов и информационно-коммуникационных технологий в преподавании трудов Навои. Также обосновывается эффективность педагогических технологий в развитии исторического мышления и привитии учащимся чувства уважения к национальным ценностям и духовному наследию. В статье содержатся методические рекомендации по изучению наследия Навои в образовательном процессе.

Ключевые слова: Мир Алишер Навои, историческое общество, педагогические технологии, интерактивное образование, современные методы обучения, духовное наследие, историческое мышление, информационно-коммуникационные технологии, эффективность образования.

Abstract

This article analyzes the issues of studying the role of the legacy of the great thinker and statesman Mir Alisher Navoi in the development of historical society based on pedagogical technologies. The study highlights the possibilities of using modern pedagogical approaches, interactive methods, and information and communication technologies in teaching Navoi's work. It also substantiates the effectiveness of pedagogical technologies in developing

historical thinking and instilling in students a sense of respect for national values and spiritual heritage. The article contains methodological recommendations for studying Navoi's legacy in the educational process.

Keywords: Mir Alisher Navoi, historical society, pedagogical technologies, interactive education, modern educational methods, spiritual heritage, historical thinking, information and communication technologies, educational effectiveness.

Alisher Navoiy

Ulug' o'zbek shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi. G'arbda chig'atoy adabiyotining buyuk vakili deb qaraladi, sharqda „nizomi millati va din“ (din va millatning nizomi) unvoni bilan ulug'lanadi[1].

“Farhod va Shirin”da Chin xoqoni o'g'li Farhodga shunday deydi:

Seni dono demak yoxud xiradmand,

Demakdurkim achig' maydur, chuchuk – qand [2].

Navoiyning buyukligi ham shunday – mayning achchiq, qandning shirin ekani kabi barchaga ayon! Bu buyuklikning sabablaridan biri, shubhasiz, allomaning oliyjanob fazilatlari, go'zal axloqidir[3].

“Qur'oni Karim”ning Qalam surasi 4-oyatida Muhammad s.a.v.ga qarata “Albatta, Siz buyuk xulq uzradirsiz!” deyiladi. Ulug' mutasavvif Ibn Arabiy o'z tafsirida bu oyatda payg'ambarimizning Allohning axloqi bilan xulqlanganliklari nazarda tutilganini ta'kidlaydi. Hadisi sharifda keltirilishicha, “Rasululloh sallallohu alayhi va sallam odamlarning eng yuzi chiroylisi va eng xulqi go'zali erdilar”.

Payg'ambarimizning (s.a.v.) o'zlari bu xususda: “Men makorimi axloq (oliyjanob xulqlar)ni mukammal qilish uchun yuborilganman”, – deganlar va “Darhaqiqat, sizlarning yaxshingiz – xulqi yaxshingizdir!” – deb marhamat qilganlar.

Musulmon Sharqi kishilarining axloqiy fazilatlari, asosan, islom va islomiy tasavvuf asosida shakllangan. Qolaversa, islom dunyosining buyuk siymolari hayot yo'li, qarashlari insonlar uchun asosiy dasturul amal bo'lib kelmoqda [4].

Yuqoridagilardan shunday xulosa kelib chiqadiki, Allohning necha ming payg'ambar, avliyo va hikmat egalarini yuborishdan maqsadi – insoniyatning axloqini bezash va siyratini yaxshilash, go'zallashtirishdir. Shu ma'noda aytganda, hazrat Alisher Navoiy shaxsiyati bilan ham, ijodi bilan ham ana shu missiyaga xizmat qilgan siymolardan biridir. Bu da'voni u kishining bolalikdan vafotiga qadar bosib o'tgan hayot yo'li hamda ijodi to'laligicha tasdiqlaydi. Navoiyning o'tkir zehni, go'zal xulqi bolalik chog'ida Taft shahrida Sharafiddin Ali Yazdiyning duosiga sazovor bo'lishiga sabab bo'ladi. Navoiyning zamondoshi va yaqin shogirdi Xondamir “Makorimu-l-axloq”da keltirishicha, bolaligidanoq Boyqaro xonadoni vakillari unga hamisha mehribonlik va g'amxo'rlik ko'zi bilan qarashgan, uning ilhom nishonalariga ega bo'lgan so'zlarida saodatli kelajagi alomatlarini ko'rib, o'ta iltifot va marhamat ko'rsatishgan[5].

Albatta, bolalikdan ilmga va kamolotga intilish tezda o'z mevasini bera boshlagan. Buni barchamizga tanish bo'lgan, ko'plab manbalarda takror-takror keladigan quyidagi voqea ham tasdiqlaydi: Ungacha hech kim turkiy tilda undan ko'proq va yaxshiroq she'r yozmagan Mavlono Lutfiy kunlardan bir kuni endigina unib-o'sib borayotgan va yaxshi-yomonni ajrata boshlayotgan yosh Navoiyning huzuriga borib, undan: “Biror g'azal o'qib berish orqali o'z tafakkuringiz mahsullarining yangi namunalaridan meni bahramand eting”, – deb iltimos qiladi.

“Orazin...” deb boshlanuvchi g‘azalni eshitgach, “Xudoga qasam ichib aytamanki, agar iloji bo‘lganida edi, o‘zimning o‘n-o‘n ikki ming baytdan iborat bo‘lgan turkiy va forsiy g‘azallarimni birgina ushbu g‘azalga almashtirgan va ushbu ayirboshlash natijasini katta muvaffaqiyat deb hisoblagan bo‘lardim”, – deya e‘tirof etadi[6].

Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonida milliy ma‘naviy merosni chuqur o‘rganish hamda uni yosh avlod ongiga zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida singdirish ta‘lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Shu jihatdan, buyuk mutafakkir, davlat arbobi va adib Mir Alisher Navoiy merosi tarixiy jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy fikr va ma‘naviy hayot rivojida muhim o‘rin egallaydi. Uning asarlari nafaqat adabiy-estetik ahamiyatga ega, balki tarixiy tafakkur, adolat, insonparvarlik va davlat boshqaruvi g‘oyalari bilan ham dolzarbdir.

Mir Alisher Navoiyning tarixiy jamiyatdagi o‘rnini o‘rganish jarayonida an‘anaviy ta‘lim usullari bilan cheklanib qolish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va tarixiy voqeliklarni chuqur anglash imkoniyatlarini to‘liq ta‘minlay olmaydi. Shu sababli ta‘lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni joriy etish, xususan, interfaol metodlar, muammoli ta‘lim, loyiha asosida o‘qitish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur maqolada Mir Alisher Navoiyning tarixiy jamiyatdagi o‘rni va faoliyatini o‘rganishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari hamda amaliy imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, ushbu yondashuvlar orqali o‘quvchilarda tarixiy tafakkur, milliy o‘zlikni anglash va ma‘naviy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi.

Misol tariqasida maqolamiz tarkibida interfaol metodlar va texnologiyalar bilan mavzuni yoritilish shaklini ko‘rib chiqamiz. “Mir Alisher Navoiyning tarixiy jamiyatdagi o‘rni” mavzusi yuzasidan texnologiyalarni qo‘llab ko‘ramiz.

“Muloqot” texnologiyasi

Texnologiyaning harakteristikasi. Ushbu texnologiya talaba (yoki o‘quvchi)larning dars jarayonida mustaqil fikrlashga, o‘z fikrlarini erkin bayon etishga hamda ularda bahslashish madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan bo‘lib, odatda bunday mashg‘ulot talaba (yoki o‘quvchi)arni kichik guruhlariga ajratgan holda o‘tkaziladi.

Texnologiyaning maqsadi. Tanlangan mavzu, muammo asosida talaba (yoki o‘quvchi)larning fikrlarini hamda ushbu mavzuga bo‘lgan munosabatlarini aniqlash, mustaqil holda umumiy bir fikrga kelishlariga va to‘g‘ri xulosa chiqarishlariga yordam berish, erkin holda bahslashishlariga sharoit yaratish, muloqotga kirish va muloqot qila olishga o‘rgatish.

Texnologiyaning qo‘llanishi. Amaliy, laboratoriya, fakultativ mashg‘ulotlarda va darsdan tashqari vaqtda o‘tkaziladigan tarbiyaviy soatlarda qo‘llanishi mumkin bo‘lib, mashg‘ulot jamoa va kichik guruh shaklida o‘quv auditoriyasida yoki tabiat qo‘ynida o‘tkazilishi mumkin.

Mashg‘ulotda foydalaniladigan vositalar. Vatman qog‘ozi, flomaster, markerlar.

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotni boshlashdan avval talaba (yoki o‘quvchi)larni muloqot, bahs-munozarani o‘tkazishga qo‘yilgan talablar, qoidalar bilan tanishtiradi, so‘ngra ushbu darsning bosqichma-bosqich o‘tkazilishini tushuntiradi;
- o‘qituvchi talaba (yoki o‘quvchi)larni mavzu yo‘nalishlari bo‘yicha guruhlariga ajratadi;

- har bir kichik guruh jamoasi o'z yo'nalishi bo'yicha tayyorgarlik boshlaydi: boshqa kichik guruhlar bilan muloqotga kirisha olishi uchun o'z yo'nalishi bo'yicha turli materiallar, ko'rgazmali qurollar, turli rivoyat, olim va mutafakkirlarning fikrlari va boshqalarni tayyorlaydi;

- kichik guruhlar o'rtasida asosiy mavzu va uning yo'nalishlari bo'yicha muloqot boshlanadi;

- o'qituvchi guruhlarining fikrlarini maqsadli yo'naltirib boradi va asosiy mavzu kichik guruhlar tomonidan yoritilgach, u aytilgan fikrlarga o'zining munosabatini bildirgan holda muloqotni yakunlaydi.

Texnologiyani o'tkazish algoritmi:

1-bosqich. O'qituvchi mashg'ulotni muloqotning mavzusini aniqlashdan boshlaydi. Masalan, “Mir Alisher Navoiyning tarixiy jamiyatdagi o'rni”. Shu mavzuni o'rta tashlab, talaba (yoki o'quvchi)lardan A. Navoiyning vazirlik lavozimida yuritgan faoliyati hamda ilm – fan sohasida yuritgan faoliyati tarafdorlarini aniqlab oladi. Ularni shu tartibda guruhlariga ajratadi va ularga tayyorgarlik ko'rishlari uchun sharoit hamda imkoniyatga qarab aniq vaqt belgilaydi.

2-bosqich. Har bir kichik guruhdagi talaba (yoki o'quvchi)lar o'z mavzulari asosida kerakli materiallar (dalillar, misollar, aniq fikrlar, o'z fikrlarini tasdiklovchi ko'rgazmali materiallar, imkon bo'lsa videofilm, maqolalar, mutafakkir va olimlarning so'zlari va boshqalar)ni tayyorlaydilar. Kichik guruhdan bir kishini himoya uchun tanlaydilar, qolganlar esa o'z fikrlarini ko'shimcha qilishlari mumkin.

3-bosqich. Kichik guruhlar himoyaga tayyor bo'lgach, o'qituvchi kichik guruhlarining biriga himoya uchun so'z beradi (himoyaga chiqish ixtiyoriy ravishda bo'lishi mumkin). Kichik guruh vakili jamoa nomidan so'zga chiqib, ularga berilgan mavzu asosida tayyorlangan materiallar va dalillar asosida himoya qilishga kirishadi. Kichik guruh vakili so'zini tugatgach, jamoaning qolgan a'zolari o'z fikrlari bilan qo'shimcha qilishlari mumkin.

4-bosqich. Mashg'ulotning 3-bosqichidagi kabi bu bosqichda ham o'qituvchi navbatdagi guruh vakiliga himoya uchun so'z beradi. Ikkinchi kichik guruh ham birinchi kichik guruh kabi o'z mavzusi bo'yicha himoya qiladi. Himoya tugagach, o'qituvchi mashg'ulotning keyingi bosqichiga o'tadi.

Izoh: Har ikkala kichik guruhning himoyasi vaqtida o'tsituvchi iloji boricha ularga xalaqit bermaslikka, o'z fikr va mulohazasini bildirmaslikka, savol bermaslikka harakat qiladi. Hech qaysi kichik guruhga yon bosmagan holda muloqotni boshqaradi. Kichik guruhlar himoyasi vaqtida tartib saqlanishiga va muloqotni o'tkazishga qo'yilgan talab, qoidalarni to'liq bajarilishiga erishishga harakat qiladi. Bu bosqichda, asosan, ikki kichik guruh erkin, mustaqil faoliyat ko'rsatishlari kerak bo'ladi.

5-bosqich. Kichik guruhlar bir-birlariga savollar berishni boshlaydilar. Kichik guruhlar tomonidan beriladigan savollar, ularning himoyasi vaqtida aytilgan dalillar, misollar, fikrlarni yanada oydinlashtirish maqsadida o'z guruhlarining fikrlarini yanada ta'kidlab, isbotlab, qolganlarni ham shu fikrga qo'shilishlariga da'vat qilish uchun berilishi mumkin. Talaba (yoki o'quvchi)lar erkin holda o'zlarining chiqishlari bilan barchaga ta'sir ko'rsatishga, o'z fikrlarini ma'qullashga harakat qiladilar. O'qituvchi bunday holatga sharoit, imkoniyat yaratgan holda bahs-munozarani samimiylik bilan boshqaradi.

6-bosqich. O'qituvchi har ikkala tomonning savollari, fikrlari, ma'qullaydigan so'zlari tugagach, ular tomonidan aytilgan fikrlarni umumlashtiradi va o'zining bu masala haqidagi fikr

va mulohazasini bayon etadi. Kichik guruh ishtirokchilari tomonidan tushgan savollarga kerakli javobni berishga harakat qiladi.

Mashg'ulot oxirida o'qituvchi har ikkala guruhning mashg'ulot jarayonidagi faoliyatlarini tahlil etib, ularga minnatdorchilik bildiradi va mashg'ulotni yakunlaydi.

Ushbu mashg'ulotning davomiyligi sharoitga qarab belgilanadi.

Bu pedagogik texnologiyadan tashqari yana bir qancha interfaol metod texnologiyalarni sanab o'tish mumkin. Mir Alisher Navoiyning tarixiy jamiyatdagi o'rni va faoliyatini o'rganish ta'lim jarayonida integrativ yondashuvni talab etadi. Uning adabiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy merosi tarix fanlari bilan bir qatorda pedagogika, falsafa va adabiyotshunoslik bilan uzviy bog'liq holda talqin etilishi lozim. Shu nuqtai nazardan, pedagogik texnologiyalar Navoiy merosini o'rganishda ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim vosita hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarda Navoiy faoliyatiga nisbatan mustaqil va tanqidiy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Xususan, interfaol metodlar — “Aqliy hujum”, “Klaster”, “B-B-B”, “Insert” kabi usullar orqali Navoiy asarlaridagi tarixiy g'oyalar, jamiyat va davlat boshqaruvi haqidagi qarashlar tahlil qilinadi. Bu metodlar o'quvchilarni faol fikrlashga undab, tarixiy voqealarni sabab-oqibat bog'liqligida tushunishga yordam beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish Navoiy merosini o'rganishda keng imkoniyatlar yaratadi. Elektron darsliklar, multimediali taqdimotlar, tarixiy xaritalar va raqamli manbalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar ta'limning vizualligini oshirib, o'quvchilarning qiziqishini kuchaytiradi. Ayniqsa, onlayn manbalar orqali Navoiy davriga oid tarixiy hujjatlar va ilmiy tadqiqotlardan foydalanish bilimlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, pedagogik texnologiyalar asosida Mir Alisher Navoiyning tarixiy jamiyatdagi o'rnini o'rganish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirib, yosh avlodda milliy tarix va ma'naviy merosga nisbatan ongli va mas'uliyatli munosabatni qaror toptiradi.

Ushbu maqolaning yakuniy qismida Navoiy bobomizning qalamiga mansub ushbu g'azal misralarini keltirib o'tmoqchimiz:

*Zihi husnuing zuhuridin tushub har kimga bir savdo,
Bu savdolar bila kavnayn bozorida yuz g'avg'o.
Seni topmoq base mushkildurur, topmaslig' osonkim,
Erur paydoliq'ing pinhon, vale pinhonlig'ing paydo.
Chaman otashgahiga otashin guldin chu o't solding,
Samandardek ul o'tdin kulga botti bulbuli shaydo.
Ne ishka bo'ldi beorom ko'zgu aksidek Majnun,
Yuzi ko'zgusida aksini gar ko'rguzmadi Laylo.
Quyoshqa gah qizarmoq, gohi sarg'armoq erur andin
Ki, sun'ung bog'ida bor ul sifat yuz ming guli ra'no.
Nedin yuz gul ochar ishq o'tidin bulbul kabi Vomiq,
Yuzingdin gar uzori bog'ida gul ochmadi Azro.
Kalomingni agar Shirin labida qilmading muzmar
Nedin bas la'l o'lur Farhodning qon yoshidin xoro.
Jamoling partavidin sham' o'ti gar gulsiton ermas,
Nedin parvona o't ichra o'zin solur Xaliloso.*

*Malohat birla tuzdung sarvqadlar qomatin, ya'ni
Ki, mundoq zeb birla ul alifni aylading zebo.*

Xulosa qilib aytganda, Mir Alisher Navoiyning tarixiy jamiyatdagi o'rne va ma'naviy-ma'rifiy merosini o'rganish ta'lim jarayonida muhim ilmiy-pedagogik ahamiyatga ega. Uning ijtimoiy-siyosiy faoliyati, adolat va insonparvarlikka asoslangan qarashlari bugungi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lib, yosh avlodda tarixiy tafakkur va milliy o'zlikni anglash jarayonini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Mir Alisher Navoiy merosini o'rganishda pedagogik texnologiyalardan, xususan interfaol metodlar, muammoli va loyiha asosida o'qitish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarning bilim faolligini kuchaytirib, mustaqil fikrlash, tahlil qilish va tarixiy voqealarni chuqur anglash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar Mir Alisher Navoiyning tarixiy jamiyatdagi o'rnini zamonaviy talablarga mos ravishda talqin etish, uning merosini yoshlar ongiga tizimli va samarali singdirish imkonini beradi. Natijada ta'lim jarayonida nazariy bilimlar amaliy faoliyat bilan uyg'unlashib, o'quvchilarda milliy qadriyatlar va ma'naviy merosga nisbatan barqaror ijobiy munosabat shakllanadi.

Xulosamizni yana bir ulug' shaxshning Naviyga nisbatan bergan ushbu ta'rifi bilan yakunlaymiz. Imom G'azzoliy: "Ma'naviyat sohiblari g'ayb ko'zi ila ko'ra oladi. Ba'zan unga vahiy tarzida, ba'zan unga tush tarzida ayon bo'ladi. Inson agar ma'nan bir olamga yuksalsa, yerda turib haqiqatni ko'radi va mohiyatni anglaydi. To'g'ri tush payg'ambarlikning qirq olti juz'idan biridir. Bu holat ham eng yuksak ma'naviyatning darajalaridan biridir", – deydi[7].

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. <https://www.facebook.com/bukhara.natlib.uz/posts/temuriylar-davri-adabiyoti-14-15-asrlarsayfi-saroyio%CA%BBzbek-mumtoz-adabiyotining-i/1143365009453205/>
2. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. TAT. 10 jildlik, 6-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.
3. O. Avaznazarov. Navoiyshunoshlik (o'quv qo'llanma). – Toshkent, 2024
4. O. Avaznazarov. Alisher Navoiy dostonlaridagi yul, yulchi, safar va manzil
5. talkinlarida badiy tushlarning rollari. "Alisher Navoiy" xalqaro jurnali. – 2022
6. Hondamir. Makorim ul-axloq. – Toshkent: "Akademnashr", 2018. 66-b
7. Hondamir. Makorim ul-axloq. – Toshkent: "Akademnashr", 2018. 89-b
8. J. Eshonqulov. O'zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. – Toshkent: Muxlis, 2011